

ФАЛСАФА ва ХУҚУҚ

Ижтимоий-сиёсий, маънавий-маърифий, фалсафий-ҳуқуқий журнал
2026/2 (№36)

“... ҳеч бир мамлакат якка ҳолда барча замонавий хавф-хатарларни четлаб ўтиб, уларнинг сабаб-оқибатларини бартараф этишига қодир эмаслиги аини ҳақиқатдир. Бугун пайдо бўлаётган глобал муаммолардан халос бўлиш учун нафақат муайян минтақа даражасида, балки умумжаҳон миқёсида ҳамжиҳат ҳаракат қилиш тақазо этилади. Бунинг учун амалий ҳамкорлик руҳини қайта тиклаш, башарият манфаатларини ҳар қандай зиддиятлардан юқори қўйган ҳолда, ягона мақсад йўлида бирлашиш лозим.”

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев

Таҳрир хайъати:

М.Н.Абдуллаева -
ф.ф.д., профессор
Б.Т.Тўйчиев –
ф.ф.д., профессор
Ж.С.Раматов –
ф.ф.д., профессор
В.Р. Топилдиев -
ю.ф.д., профессор
Д.И.Файзиходжаева -
ф.ф.д., профессор
Қ.Н.Назаров –
ф.ф.д., профессор
И.Саифназаров -
ф.ф.д., профессор
Ў.М.Абилов –
ф.ф.д., профессор
А.Ў.Ўтамуродов -
ф.ф.н., профессор
Ў.Ғ.Тилавов -
ф.ф.д., DSc

Бош муҳаррир:
А.Г.Муминов –
с.ф.д., профессор

Бош муҳаррир
ўринбосари:
Х.В.Соқиев -
PhD, доцент

Муассис: Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий
Университети

Таҳририят манзили: 100095 Тошкент шаҳар,
Университет кўч., 4.
www.phljournal.uz
E-mail: phljournal@nuu.uz

ISSN 2181-7294

Босишга 22.04.2026 да берилди
Бичими 60x84 Offset қоғози. “Times”
гарнитураси. Хажми 187 б. Нашриёт ҳисоб
табоғи 12 б.т. Адади 100 нусха.

Журнални нашрга тайёрловчилар
Қ.Назаров, А.Муминов, Х.Соқиев



Google
Scholar

CYBERLENINKA

МУНДАРИЖА:

Axmedov X.A.	<i>Ekologik gumanizm konsepsiyasining nazariy asoslari va metodologik prinsiplari</i>	3
Mamatov M.	<i>Yangi O'zbekiston islohotlarida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga e'tibor masalalari</i>	8
Исломхўжаев Х.С.	<i>Маъмурий тартиб-таомиллар ва маъмурий адлия ҳуқуқий давлатнинг ажралмас институтлари сифатида</i>	12
Xaidarov R.E.	<i>Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasi: strukturasi va funksional tavsifi</i>	20
G'ulamov O.G'.	<i>O'zbekiston sharoitida yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda madaniyat va san'atning ijtimoiy ahamiyati</i>	25
Хусанова Х.	<i>Аҳолини рўйхатга олиш жараёни: халқаро амалиёт ва рақамли имкониятлар</i>	29
Yusupova F.Z.	<i>Xalq ma'naviy merosining axloqiy kvintessensiyasi va uning ijtimoiy-axloqiy idealda aks etishi</i>	33
Madaminova D.I.	<i>Migratsiyaga oid davlat siyosati doirasida yangi mehnat bozorlarini shakllantirish istiqbollari</i>	38
Халилов Ж. С.	<i>Ёшлар орасида радикализмга қарши кураш зарурати ва имкониятлари</i>	42
Усмоналиев М.Қ	<i>Спортчини вақтинча ижарага олиш шартномасининг ҳуқуқий табиати: "sui generis" ёндашув ва миллий қонунчилик таҳлили</i>	45
Abdunazarov L.M.	<i>XXI asrda urbanizatsiya va urbanistik madaniyat</i>	49
Akif Marifli	<i>Xalqaro terrorizmning mohiyati, xususiyatlari va raqamli sivilizatsiya davridagi transformatsiyasi</i>	53
Кадирова Х.Б.	<i>Сунъий интеллект ва медиасаводхонлик интеграцияси асосида талабаларнинг мустақил ўқиш ва метакогнитив фаолиятини ривожлантириш</i>	58
Axatova D.A.	<i>Sharq mashshoiyligi va Aristotel gilomorfizmidida jism va ruh munosabatining qiyosiy tahlili</i>	62
Inagamova F.X.	<i>Qadriyatlar transformatsiyasi va hozirgi davr voqeliklari</i>	66
Mallaev N.R., Abdurasulova S.S.	<i>Ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning gender tenglik bilan o'zaro bog'liqligi.</i>	70
Sultonov T.	<i>O'rta asr Sharq iste'dod egalarining ijtimoiy falsafiy qarashlari</i>	75
Muzaffarov N.B.	<i>Shayx Xudoydod vali ma'naviy merosi va uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati.</i>	80
Meyliev U.F.	<i>Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish mexanizmlari</i>	84
Nuridinov J.I.	<i>Robindranat Tagor falsafasida din va dunyoviylik sintezi</i>	87
Eshonkulova N.A.	<i>Nodavlat ta'lim – individual erkinlik va ijtimoiy zaruriyatning qonuniyatli mahsuli sifatida</i>	90
Shodmonova S.E.	<i>Siyosiy ijtimoiylashuv masalasini tadqiq etishning nazariy metodologik jihatlari</i>	95
Yadgarov Sh.	<i>Shanxay hamkorlik tashkilotining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari: imtiyozlar, immunitetlar va a'zolikni kengaytirish</i>	100
Abdumalikov A.A.	<i>Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning kelib chiqish omillari va</i>	104

	<i>ularni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy muhit sharoitlari</i>	
Doniyarova S.Sh.	<i>Mehnat migratsiyasi va xotin-qizlar mehnat migratsiyasining o'ziga xosligi</i>	108
Mustafaev J.Sh	<i>Ma'naviy barqarorlik va beqarorlik inson tabiiy intellektining sinergetik xususiyati sifatida</i>	111
Азимов Ҳ.И.	<i>Ўзбекистонликлар галабани таъминлаш йўлида: фронт ортидаги буюк матонат</i>	116
Zokirov M.	<i>Inklyuziv institutlar jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida</i>	120
Ажимуратова З.Б.	<i>Современные вызовы и пути совершенствования защиты прав потребителей в электронной коммерции Узбекистана</i>	124
Бурханов Х.М.	<i>Рақамли жамиятда миллий сегмент фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари</i>	128
Бабаева А.Б.	<i>Цифровая коммуникация и электронное государство как новые формы диалога государства и народа</i>	132
Исламбаев Р.	<i>Қорақалпоғистон ёшлари бандлик кўрсаткичларини социологик ўлчашнинг методологик жиҳатлари</i>	136
Оринбаев Ж.	<i>Корпоратив шартнома: назария ва амалиёт масалалари</i>	141
Сатторова Д.Ғ.	<i>Жамиятда умуминсоний ва миллий идеалнинг уйғунлиги</i>	145
Тиллаволдиева М.Х.	<i>Сунъий интеллект тушунчаси ва унга айрим ёндашувлар</i>	149
Тлеуова Г.О.	<i>Генезис и социальные последствия феномена насилия в семье</i>	153
Ҳоликназаров Ф.Б.	<i>Интеллектуал мулк ҳуқуқини ҳимоя қилишда махсус судларнинг роли ва аҳамияти.</i>	158
Ибрагимова М.А.	<i>Личность преступника и обстановка совершения преступлений в сфере незаконного оборота наркотических средств с использованием сети интернет</i>	163
Худойбергенова П.Т.	<i>Соғлом оилани шакллантиришда аёл роли</i>	168
Boymurodov Z.Sh.	<i>Turmush tarzining milliy xususiyatlari va uni optimallashtirish imkoniyatlari</i>	172
Xadjiev A.K., Отаназаров К.А.	<i>Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida huquqiy savodxonlikni oshirishda raqamli platformalar</i>	175
Tolipov A.A.	<i>Huquqbuzarliklar ijtimoiy profilaktikasining huquqiy, insonparvarlik, tizimli, differensiallashgan ishontirish tamoyillarining sotsiomadaniy tahlili</i>	179
Atavullaev M.A.	<i>Ijtimoiy davlat institutsional tizimlarini mustahkamlashning ilmiy va falsafiy-huquqiy masalalari</i>	183
Soqiyev X.	<i>Axborot monitoringining zamonaviy mexanizmlari</i>	188
Axmedova D.S.	<i>Zamonaviy jamiyatda oila, gender va urf-odatlar masalasi</i>	192
Сабирова У.Ф., Абдухакимова З.Х.	<i>Роль цифровых технологий и искусственного интеллекта в укреплении семейных ценностей в Узбекистане</i>	195

AXBOROT MONITORINGINING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Soqiyev X.–

*Alfraganus University, kafedra mudiri
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

Global axborot monitoringi - butunjahon Internet tarmog'idagi, ommaviy axborot vositalaridagi, ijtimoiy tarmoqlar va ilmiy ma'lumotlar bazalaridagi ulkan hajmdagi kontentni real vaqt rejimida to'plash, filtrlash hamda tahlil qilish jarayonidir.

Axborotlashgan jamiyatning inson borlig'iga ijobiy va salbiy ta'siri namoyon bo'lishi jamiyatda yangi ko'rinishdagi ijtimoiy tendensiyalar yuzaga kelishini ko'rsatdi.

Tarmoqli hamjamiyatlarning ko'payishi, unda faoliyat yurituvchi virtual guruhlarning ma'lum bir soha va maqsadlarga ko'ra differensiallashuvi, shuningdek, o'ziga xos strategiyalarning ishlab chiqilishi natijasida virtual olamda identifikatsiya muammolarini yuzaga keltirdi. Ya'ni, axborotlashgan jamiyatda insonning mavjudlik xususiyatlari va o'zligini anglash strategiyasi virtual olamda shakllanishi namoyon bo'ldi. Shaxsiy identiklikni oqilona anglash va unga erishish uchun individual yondashuv asosida shakllantirish identiklikka erishishda muhim jarayondir.

Global miqyosda ro'y berayotgan mazkur jarayon turli jamiyatlarda umumiy jihatlariga ega bo'lib, turli mamlakatlarda o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Shiddat bilan ilgari borayotgan ushbu jarayon u yoki bu mintaqada turlicha bo'lsa-da, biroq uning mohiyati, nihoyatda, muhim bo'lib qolaveradi. Milliy identiklikning shakllanish jarayoni uzoq vaqt talab qiladigan murakkab tarixiy jarayondir. Uning shakllanishida millatga xos bo'lgan etnik xususiyatlardan tortib, u istiqomat qilayotgan jo'g'rofik joylashuvning imkoniyatlariga qadar bo'lgan ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda o'ziga xos identiklik shakllanishi axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy-madaniy hayotni transformatsiyalash orqali amalga oshiriladi.

Milliy identiklikning shakllanishida milliy his asosiy rol o'ynaydi. "Milliy his-tuyg'u milliy o'zlikni anglashdan paydo bo'ladigan o'z millatiga, an'alariga, odatlari, madaniyati, turmushi, milliy ma'naviy qadriyatlariga bog'liqlik hissidir. U milliy ruhiyat, madaniy-ma'naviy meros, urf-odat va an'alar, tarixiy tajriba bilan bog'liq holda millat mentalitetida yaqqol namoyon bo'ladi" [1]. Boshqa bir ta'rifda "Xalq qadimgi odatlari va udumlariga murojaat eta turib, o'zini ijtimoiy-tarixiy makonda anglashga intiladi, ichki identifikatsiyalash orqali millat, etnos ekanligini tasdiqlab beradi", [2] deyiladi.

Ushbu jarayon asosan davlat xavfsizligini ta'minlash, yirik brendlar reputatsiyasini himoya qilish, ijtimoiy-siyosiy tendensiyalarni o'rganish yoki ilmiy-texnikaviy dinamikani kuzatish uchun qo'llaniladi.

Yangi axborot paradigmasi[3] markazida axborot zamonaviy siyosiy jarayonning eng muhim omili sifatida belgilangan. Axborot texnologiyalari siyosiy institutlarning muhim mazmunini, siyosiy munosabatlar shakllarini, siyosiy makon va vaqt konfiguratsiyasini o'zgartiradi. Virtual siyosiy makon siyosiy jarayonning yangi yo'nalishiga aylanib borayotganligi yangi shakldagi olamni shakllantiradi" deydi olim[4].

Ko'pgina mamlakatlarda OAV faoliyatini monitoring qilib borishga ixtisoslashtirilgan tuzilmalar faoliyat yuritadi. Har bir mamlakatning OAVni monitoringi bilan shug'ullanuvchi tuzilmasi o'zida ishlab chiqilgan mezonlar asosidagi ko'rsatkichlar bo'yicha monitoringni olib boradi.

Xususan, bunday tuzilmalar ilk bor jahonning yetakchi mamlakatlari hududlarida tashkil etilgan bo'lib, ular o'z mamlakatlari milliy manfaatlariga daxldor ma'lumotlar yuzasidan tahlil ishlarini olib boradi.

Global axborot monitoringini amalga oshirishning tizimli bosqichlari, usullari va texnik vositalari quyidagilardan iborat:

Axborot monitoringi shunchaki yangiliklarni o‘qish emas, balki ma’lum bir algoritimga asoslangan uzluksiz texnologik sikldir:

- **Maqsadni belgilash va obyektни shakllantirish:** Monitoring nima uchun o‘tkazilayotgani aniqlanadi. Masalan: muayyan ijtimoiy g‘oya, geosiyosiy vaziyat, brend nomi yoki ilmiy yo‘nalish. Tegishli kalit so‘zlar va semantik maydon tuziladi.
- **Ma’lumotlarni yig‘ish:** Maxsus avtomatlashtirilgan dasturlar (skriptlar, botlar, veb-kraulerlar) belgilangan manbalardan ma’lumotlarni uzluksiz yuklab oladi.
- **Filtrlash va Saralash:** Yig‘ilgan ulkan axborot oqimidan reklama, takroriy xabarlar, spamlar olib tashlanadi va faqat mavzuga tegishlilari qoldiriladi.
- **Tahlil va talqin:** Ma’lumotlarning ijobiy, salbiy, neytral, tarqalish dinamikasi va auditoriya reaksiyasi tahlil qilinadi.
- **Hisobot shakllantirish:** Olingan natijalar vizual ko‘rinishga keltirilib (grafiklar, diagrammalar), qaror qabul qiluvchi shaxslarga taqdim etiladi.

Buyurtmaga ko‘ra aniqlangan materiallar 4 ta bog‘liqlikda amalga oshiriladi: sohalar bo‘yicha (iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy va gumanitar soha), siyosat sub’yektlari bo‘yicha (partiyalar, saylov bloklari va birlashmalari, jamoat tashkilotlari), alohida shaxslar (mansabdor shaxslar, xalq deputatlari, siyosiy partiya va jamoat tashkilotlari rahbarlari), hududlar bo‘yicha (yirik shaharlar va viloyatlar, ma’muriy-hududiy birliklar)[5].

Ijtimoiy tarmoqlar (Social Media) bugungi kunda shunchaki muloqot maydoni emas, balki real vaqt rejimida jamiyatning kayfiyati, fikri va munosabati shakllanadigan global axborot markazidir. Aynan mana shu makonda nima sodir bo‘layotganini doimiy kuzatib borish — Social Media Monitoring deb ataladi.

Uni amalga oshirish hayotiy, biznes va strategik zaruriyat hisoblanadi. Buning sabablarini quyidagi 5 ta asosiy omil orqali tushunish mumkin:

1. Inqirozlarni boshqarish Internet asrida bitta salbiy post yoki video bir necha soat ichida trendga chiqib, brend yoki tashkilot obro‘sigga jiddiy putur yetkazishi mumkin.


- Muammoni vaqtda aniqlash: Monitoring tizimi siz haqingizda salbiy fikrlar ko‘paya boshlaganini (masalan, Twitter yoki Telegram guruhlarida) darhol signal beradi.
- "Yong‘inni" boshlang‘ich nuqtada topish: Inqiroz global tus olmasdan turib, unga rasmiy munosabat bildirish va vaziyatni yumshatish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Auditoriya va jamiyat fikrini aniqlash.

1-rasm

Ijtimoiy media hissiyotlarini talqin qilish paneli

Ushbu slayd mahsulotlar yoki mavzularning so‘nggi tendentsiyalarini taqdim etishga yordam beradigan ijtimoiy media hissiyot tahlili panelini aks ettiradi. U oy bo‘yicha tvitlar, oylar bo‘yicha tvitlar chastotasi kabi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi.



Ushbu grafikdiagramma Excelga bog‘langan va ma’lumotlar asosida avtomatik ravishda o‘zgaradi. Shunchaki o‘ng tugmani bosib va ma’lumotlarni tahrirlashni tanlang.

Ijtimoiy media tahlili (Sentiment Interpretation Dashboard). Manba: <https://brand24.com/>

Yuqoridagi diagrammada ko'rsatilganidek, zamonaviy monitoring tizimlari fikrlarni avtomatik ravishda uchta toifaga ajratadi:


- **Ijobiy:** Foydalanuvchilarga nimalar yoqyapti va ularni qanday kuchaytirish kerak?
- **Betaraf:** Shunchaki faktar jamlanmasi.
- **Salbiy:** Jamiyatdagi asosiy e'tiroz va og'riqli nuqtalar qaysilar?

3. Strategik tahlil - ijtimoiy tarmoqlar — bu eng yangi ijtimoiy va ilmiy tendensiyalar tug'iladigan joy. Monitoring yordamida jamiyatda ayni paytda nimalarga ko'proq ehtiyoj sezayotganini aniqlash, ma'lum bir tushuncha, g'oya yoki ijtimoiy fenomenning odamlar ongida qanday transformatsiyaga uchrayotganini sotsiologik nuqtayi nazardan kuzatish imkoniyati beradi.

4. Raqobatchilar va muqobil yo'nalishlar tahlili - sohalardagi boshqa subyektlarni ham monitoring qilish orqali ularning yutuqlari va xatolaridan xulosa chiqarish mumkin. Odamlar ulardan nima uchun norozi yoki ularning qaysi g'oyasi muvaffaqiyat qozondi? Bu ma'lumot keyingi strategik qadamni aniqroq tashlashga yordam beradi.

5. Kommunikatsiya va qayta aloqani yaxshilash - ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari ko'pincha rasmiy portallarga yozib o'tirmasdan, o'z profillarida muayyan muammolarni ko'tarishadi. Monitoring orqali to'g'ridan-to'g'ri belgilamagan bo'lsalar ham, yozilgan kommentlar yordamida muloqotga kirishish va qiziqtirgan masalani qilishi mumkin. Bu esa ijobiy munosabat va ishonchni keskin oshiradi.

2-rasm



Ijtimoiy media monitoringining asosiy ish oqimi sxemasi. manba:
<https://brand24.com/>.

Ushbu sxemada ko'rsatilganidek, forumlar, bloglar va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar maxsus dasturiy ta'minot yordamida qayta ishlanib, sifat nazoratidan o'tadi. Keyin esa maqsadga qarab soha mutaxassislariga tahliliy xulosa sifatida yetkazib beriladi.

Muxtasar aytganda, ijtimoiy media monitoringi — bu raqamli dunyoda "ko'r-ko'rona" harakat qilmaslik, aksincha axborot maydonini to'liq nazorat qilish va boshqarish uchun birlamchi vositadir.

ADABIYOTLAR:

1. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati / mualliflar jamoasi. -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi HMIU, 2009. -B. 412
2. Royce A. Ethnic dentity. Strategies of Diversity. Undiam University Press. - Broomington, 1982. -P.14.
3. Кун Т. Структура научных революций: Пер. с англ. И.Э. Налётова / Под общ. ред. и послесловие С.Р. Микулинского, Л.А. Марковой. - М.: Прогресс, 1975. - 2е изд. - 1977.
4. Мониторинг СМИ. Медиапростир <http://www.media-prostir.kiev.ua/sompany.html>
5. Social Media Monitoring: A Complete Guide for 2026

REZYUME:

Maqolada axborot texnologiyalari siyosiy institutlarning muhim mazmunini, siyosiy munosabatlar shakllarini, siyosiy makon va vaqt konfiguratsiyasini o'zgartirishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, siyosat, sub'yekt, partiyalar, saylov, jamoat tashkilotlari, shaxs.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируется, как информационные технологии изменяют сущностное содержание политических институтов, формы политических отношений и конфигурацию политического пространства и времени.

Ключевые слова: экономика, политика, субъект, партии, выборы, общественные организации, индивид.

RESUME:

The article analyzes how information technologies change the essential content of political institutions, the forms of political relations, and the configuration of political space and time.

Keywords: economy, politics, subject, parties, elections, public organizations, individual.